

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

**O‘ZBEK ADABIYOTI UNI O‘QITISH
USLUBIYATI KAFEDRASI**

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani
v.b. _____ f.f.n. Sh.Haydarov
“ _____ ” _____ 2013 yil

5141100 - o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun
Bahromova Yorqinoy Ulug‘bek qizining

**“Tog‘ay Murodning "Otamdan qolgan
dalalar” asarining lingvopoetik tahlili**
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: f.f.n.Haydarov Sh.

Taqrizchi: dots. Fayzullayev B.

**BMI O‘ZBEK ADABIYOTI VA UNI O‘QITISH
USLUBIYATI**

kafedra yig‘ilishining (qaror №10, 15.05.2013)

qarori bilan himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri _____ p.f.n. Yadgarov Q.

Jizzax-2013

**Mavzu: “Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarining
lingvopoetik tahlili**

REJA:

Kirish.

**I bob. Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarining
semantik-grammatik xususiyatlari**

1.1. Bosh bo‘laklarning ifodalanishi

1.2. Ikkinchi darajali bo‘laklarning ifodalanishi

**II bob. Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarining
lingvopoetik xususiyatlari**

2.1. Takrorlar lingvopoetikasi

2.2. Parsellyativ konstruksiyalar lingvopoetikasi

III bob. Ishning amaliyotga tatbiqi

3.1. Ta’lim bosqichlari dastur va darsliklarida Tog‘ay Murod ijodi

3.2. Ochiq dars ishlanmasi

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bugun ta'lim jarayonida ijobiy o'zgarishlarni yuzaga chiqarish uchun davlat ham, jamiyat ham to'la safarbar qilingan, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq".¹

Ushbu jarayonda o'quvchilarimizning kitobga, badiiy adabiyotga oshnoligi ularning ezgu fazilat egasi bo'lish jarayonida yangi-yangi usul va yo'llarni topishga harakat qilmoqda. Bularning barchasi bizga pirovard natijada tom ma'nodagi barkamol shaxsni tarbiyalash imkonini berishi lozim.

Bugungi kunda gapdan yirik sintaktik butunlik - matnning lingvistik tabiati bilan bog'liq tadqiqotlarning sifati va ko'lami ortib bormoqda . Matn muammosi hozirgi kunda jahon tilshunosligida, xususan, o'zbek tilshunosligida ham eng dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, badiiy matnning shakllanish tarzi, badiiy matn komponentlari o'rtasidagi semantik-sintaktik munosabatlarning e'tiboridan tushmayotganligi mavzuning ahamiyatini belgilaydi. O'zbek tilshunosligida ham badiiy asar tilini o'rganishga bag'ishlangan ishlarda, asosan, ikkita yo'nalish yetakchilik qilganligini kuzatish mumkin. X.Doniyorov va S.Mirzayevlar tildagi o'sish-o'zgarishlar, adabiy til va umumxalq tili munosabatlari kabi masalalarni o'rganishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadigan yo'nalishni lingvistik as'ekt, yozuvchining umumxalq tiliga bo'lgan munosabati, til boyliklaridan foydalanishi, yozuvchi mahorati, stili haqida xulosa chiqaruvchi yo'nalishni esa stilistik aspekt tarzida talqin qilganlar.

Tilning muayyan tarixiy davrdagi holati, ayni holatga xos bo'lgan xususiyatlar, leksik, fonetik va grammatik o'zgachaliklar, tilning hozirgi holati bilan umumiy va farqli jihatlarini ilmiy tadqiq etish maqsadida o'sha davrga oid adabiy-badiiy asarlarning tili o'rganiladi.

Tilning hozirgi holati, undagi tegishli hodisalarni tahlil va tadqiq etish ham bundan mustasno emas.

Badiiy asar tilini nutqning funksional uslublaridan biri-badiiy uslubning namoyon bo'lishi tarzida o'rganish ham muhim va zaruriy yo'nalish bo'lib, unda, ta'bir joiz bo'lsa, tirik tilning o'ziga xos, yozuvchining individual mahorati mahsuli sifatidagi va ayni paytda uning "men"i ham o'z ifodasini topgan harakati o'rganilmog'i lozim. Aniqroq aytiladigan bo'lsa, badiiy asar tili "san'at tili"ma'nosida talqin, tahlil va tadqiq etilib, tegishli xulosalar qilinmog'i maqsadga muvofiq. Badiiy asar tilini "stilistik aspekt"da o'rganishda ana shu maqsad ko'zda tutiladi, ammo bu maqsadga erishish hamisha ham oson kechmaydi. Lekin tilshunoslikdagi stilistik aspektdagi bir qancha tadqiqotlar lingvopoetikaning shakllanishiga olib keldi.

Lingvopoetik tadqiqotlar, badiiy asar tilini o'rganishda "stilistik aspektga" qaraganda ancha samarali yo'l ekanligi bugun oydinlashib bormoqda. Ayni paytda badiiy asar tilini lingvopoetik tahliliga bo'lgan qiziqishlar bugungi kunda toboro kengayib, tilshunoslik va adabiyotshunoslik ilmi bilan shug'ullanuvchilarning e'tiborini tortmoqda. Shu kabi holatlar bitiruv malakaviy ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Matn lingvistikasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab butun dunyo tilshunosligida bo'lgani kabi o'zbek tilshunosligida ham katta sur'at bilan rivojlanish pallasiga kirdi. O'zbek tilshunosligida ham matn va uning tadqiqi borasida ancha-muncha ishlar

qilingan. Jumladan, tilshunoslarimiz A.G‘ulomov, M.To‘xsonov, A.Mamajonov, N.Turniyozov, M.Hakimov, M.Yo‘ldoshevlarning olib borgan tadqiqotlari e’tiborga molik.

Asar tilini tahlil qilishda lingvopoetik yondashuv maqsadga muvofiqligi nafaqat dunyo tilshunoslari tomonidan balki o‘zbek tilshunoslari tomonidan ham ta’kidlab o‘tilgan.

Biroq Tog‘ay Murod asarlarining lingvopoetik jihatlari yo‘l-yo‘laky o‘rganilgan.

Ijodkorning modern adabiyotning gultoji sanalagn “Otamdan qolgan dalalar” asari qisman bo‘lsada, lingvopoetik aspektda tadqiq qilindi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishimizning asosiy maqsadi badiiy asarning lingvopoetik xususiyatlarini aniqlash, adibning tildan foydalanish mahoratini tahlilga tortishdan iborat bo‘lib, yozuvchining asardagi mazmunni ifodalshdan ko‘zlagan niyatini belgilashga qaratilganligini aniqlash maqsad qilib qo‘yilgan.

Badiiy matnning lingvopoetik tahlilida badiiy adabiyot tilining, xususan, tahlil etilayotgan matn tilining umumxalq tili, uning turli ko‘rinishlari va adabiy tilga munosabati ham nazarda tutiladi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilab qo‘yildi:

- asar tilining semantik-grammatik xususiyatlarini aniqlash;
- asardagi bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning ifodalanishini lingvopoetik tahlil qilish;
- yozuvchi individual uslubida matn birliklaridan qanday va qay darajada foydalanganlarini aniqlash;
- o‘quvchilarni asarga bo‘lgan qiziqishlarni shakllantirish.

Bitiruv malakaviy ishining ob’ekti. Lingvopoetikaning asosiy o‘rganish

ob'ekti badiiy matn. Ammo badiiy matn matnlar tipalogiyasi nuqtai nazaridan nobadiiy matnga qarshilantirilganda, undagi o'ziga xosliklar yana ham oydinlashadi. Ishning tadqiqot ob'ektini " Otamdan qolgan dalalar" asarining semantik-grammatik xususiyatlari va lingvopoetik tahlilda takrorlar va parsellyativ konstruksiyalarning qo'llanilishi tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida "Otamdan qolgan dalalar" asarining lingvopoetik tahlilida takrorlar lingvopoetikasi va parsellyativ konstruksiyalar yuzasidan o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish.

I bob. Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarining semantik-grammatik xususiyatlari.

Badiiy adabiyot san‘atning so‘z bilan shamoyil topadigan, boshqalaridan ko‘lam va ifoda yo‘sini bilan farqlanadigan favqulodda o‘ziga xos turidir. Shu ma’noda badiiy adabiyot badiiy-estetik butunlik sifatida nihoyatda murakkab tarkiblanishga ega. Muallif tafakkurining badiiy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladigan ana shunday serqamrov butunlik mohiyatida badiiy asar tili tahlilining muhim o‘rni bor. Badiiy asar lingvo poetikasi bilan shug‘ullangan olimlarimizning ta’kidlashlaricha, asar tilini tahlilga tortish barobarida yozuvchining shaxsiy manerasini, uning tildan mohirona foydalanish imkoniyatlarini aniqlash uchun ijodkor yaratgan asarlar tilini o‘rganish muhimdir.

Sintaksisining asosiy birligi gap ekanligi hamisha e’tirof etilgan, matn yoki uning birliklari gapdan yirik, oliy sintaktik-kommunikativ birliklar hisoblanishi lozimligi bugungi matn lingvistikasining asosiy qoidalaridan biriga aylanib ulgurdi. Shunday ekan, faqat yozuvda aks etgan gapnigina gap deb, og‘zaki nutqdagi gapni gap bo‘la olmaydi deyish to‘g‘ri bo‘lmashligini isbotlab o‘tirishning hojati yo‘q, albatta. Agar faqat yozuvda ifodalangan yaxlit nutqnigina matn deyiladigan bo‘lsa, mantiq gapni ham faqat yozuvdagisinigina tan olish kerakligini taqozo etadi. Ammo buning mumkin emasligi tabiiy.

Aytish lozimki, tayyorgarliksiz “ og‘zaki nutq va tayyorgarlik bilan ishlangan yozma nutq o‘rtasida muayyan struktur-uslubiy farqlar, o‘ziga xosliklarning mavjudligi tabiiy, ammo bu o‘ziga xosliklar birining mahsulini matn emas, ikkinchisining mahsulini esa matn dyishga hech bir asos bo‘la

olmaydi.

Shubhasizki, ogʻzaki nutq birlamchi, yozma nutq esa ikkilamchidir, shuning uchun ham yozma matn uchun ogʻzaki nutqning “genetik asos” boʻlishi aksiomadir. Matnni shakllantirishda har qanday vaziyatda ham soʻzlashuv uslubiga murojat qilmaslikning iloji yoʻq.

Oʻzbek romanchiligida modern adbiyot yoʻnalishiga oʻzining ulkan hissasini qoʻshgan adib Togʻay Murod ham “Otamdan qolgan dalalar” asarida ogʻzaki nutqning yozma nutqqa asos boʻla oladigan jihatlariga ishora qiladi. Masalan,

Oqposhshoning odamlari Ibodin saqovni haqoratlab, turtib oʻtadi. Shunda bobomiz ushoqday Ibodin saqovni dast koʻtarib, chet oladi. Oʻngiri bilan bet-boshini artadi.

Shundan koʻrinadiki, Jamoliddin ketmonda millatdoshlariga mehr-muhabbat tuygʻusi ufurib turadi. (Togʻay Murod ‘Otamdan qolgan dalalar asari 12-bet).

“Otamdan qolgan dalalar” romanini oʻqir ekansiz, milliy istiqlol mafkurasining gʻoyalaridan biri boʻlgan millatlararo totuvlik gʻoyasi ilgari surilganiga guvoh boʻlamiz. Bu holat asar qahramonlari nutqida ham oʻz aksini topgan:

“Bobomiz Qurbon qoraqirgʻizni quruq qoʻymayin deya, qoʻyin kovlaydi.

Qurbon qoraqirgʻiz bobomiz bilagidan ushlaydi.

-Tek oʻtir oʻzbak, tek oʻtir, -deydi.

-Oʻzbak qoʻynida boʻldi nima, qoraqirgʻiz qoʻynida boʻldi nima.

Millatlararo totuvlik gʻoyasi- qadriyat boʻlib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati boʻlib xizmat qiladi.

“Otamdan qolgan dalalar” asari zamonaviy romanga xos xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lib, yangi o‘zbek romani mezonlarini ham birmuncha oydinlashtiradi.”²

Asardagi har bir voqea tafsiloti va qahramonlar qiyofasi, nutqi va ichki o‘y-kechinmalari talqinida qishloq hayoti va paxtakorlar turmushini ich-ichidan bilgan va o‘sha jafokash odamlar qalbiga qalbini payvand qilib, ularga astoydil hamdard bo‘la oladigan xaqgo‘y bir adibning o‘tkir nigohi, chuqur ijodiy mushohadakorligi va ezgu niyatlari baralla sezilib turadi.

“Otamdan qolgan dalalar” romanining semantik-grammatik xususiyatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, bosh bo‘laklarning ifodalanishiga e‘tibor qaratamiz.

Badiiy matnning sintaktik shakllanishi tekshirilganda turli sintaktik vazifada keluvchi gap bo‘laklarining parsellyat sifatida final tinish belgisidan keyinga chiqarilishi mumkin.

Bosh bo‘laklarni biz ega va kesimga bo‘lamiz. Ega shaklidagi parsellyatsiyalarda ajratilgan bo‘lak muallifning estetik niyati ro‘yobiga xizmat qiladi. Bunda, asosan, ega sintaktik maqomdagi bo‘lak muayyan gap tarkibidan uzib olinganda, o‘sha bo‘lak aynan ta’kidlanayotgandek bo‘ladi.

Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanining grammatik qurilishida gapni grammatik jihatdan bog‘lovchi grammatik qo‘shimchalar shevaga xos tarzda qo‘llangan. Fikrimizning dalili sifa tida quyidagi parchani keltirib o‘tamiz: *Men farg‘onachi Jamoliddin ketmon nabirasi bo‘laman.*

(Tog‘ay Murod yuqoridagi asar 1-bet.) Yuqorida keltirib o‘tilgan gapda Farg‘onachi so‘zi o‘rnida Farg‘onada yashovchi birikmasi qo‘llanilishi mumkin edi, biroq adib asar qahramonlarining qayerga, qaysi hududga tegishli ekanligini kitobxonga ko‘rsatish uchun sheva so‘zlardan foydalangan.

1.1. Bosh bo‘laklarning ifodalanishi.

Nutqimizda sodda gaplar ikki sostavli yoki bir sostavli bo‘ladi.

Ikki sostavli gaplarda peridikativ aloqa bosh bo‘laklarning o‘zaro munosabati bilan ro‘yobga chiqsa, bir sostavli gap peridikatsiyasi bir bosh bo‘lak asosida ifodalanadi.

Demak, gap shakllanishining asosiy-bosh omili hisoblangan peridikativ yadro bir yoki ikki bo‘lak orqali ifodalanadi. Ularning har birini ham hosil qilishda o‘z atrofida boshqa bo‘laklarni uyushtirishda bosh vosita sifatida xizmat qiladi.

Shuning uchun tilimizdagi ga’larning mavjud strukturalarini nazarda tutib, ularning shakllanishidagi asosiy bo‘laklarning ya’ni predikativ yadrolar ifodasini bosh bo‘laklarni bir sostavli gaplarda bir sostavli gaplarda bosh bo‘lak tarzida qarash ma’qul bo‘ladi.

Bosh bo‘laklar ikkiga -ega va kesimga bo‘linadi. Ikki sostavli gaplarda har ikkala bosh bo‘lak bo‘lib, bir sostavli gaplarda esa ularning biri ifodalanib ikkinchi darajali bo‘laklarni o‘ziga ergashtirib keladi. Gapning qurilishida bosh bo‘laklar asosiy o‘rin tutadi. Bosh bo‘laklar gapning asosini tashkil etadi.

Bosh bo‘laklarsiz gap hosil qilib bo‘lmaydi. Gaplar o‘zaro grammatik aloqaga kirishgan bo‘laklardan hosil bo‘ladi. Gapda so‘zlar o‘zaro grammatik aloqaga kirishmasa gapning mazmuni yo‘qoladi. Shuning uchun so‘zlar bir-biri bilan grammatik qo‘shimchalar yoki ohang yordamida aloqaga kirishadi. Asarda gapda bo‘laklarning joylashish tartibi odatdagi tartibda va o‘zgargan tartibda amalga oshirilgan.

Masalan, *Men dalalarimni deya, qaytib kelaman!* (262-bet.) Ushbu gapda bosh bo‘laklar odatdagi tartibda joylashgan ya’ni, kesim gapning oxirida keldim

so‘zi bilan ifodalangan. Men olmoshi gapda ega vazifasini bajarib, gapning boshida qo‘llanilgan.

“Dalalarim-ayollarim xazon-xazon umri.” (Tog‘ay Murod.”Otamdan qolgan dalalar romanidan.262-bet)

Yuqoridagi gap esa o‘zgargan tartibda bo‘lib umri so‘zi ega vazifasini bajarib gapning oxirida xazon-xazon ushbu bo‘lak esa kesim bo‘lib egadan oldin qo‘llanilgan. Bu gapimizni odatagi tartibga keltiradigan bo‘lsak, *“Dalalarim-ayollarim umri xazon-xazon “bo‘lishi kerak edi. Yozuvchi egani parsellyatsiya sifatida gapdan tashqariga chiqargan.*

Chunki dalalari ham ayoli ham tinmay mehnat qildi.Ayolini bir umr mana shu mehnatda o‘tganligi nafaqat Dehqonqulning ayoli barcha o‘zbek ayollarining qismati ayanchli tarzda keltirib o‘tilgan.

Muallif gapning ta’sirchanligini oshirish uchun so‘zlarni takror holda qo‘llagan. Masalan : *Dalalarim –bobolarim sho‘r-sho‘r peshonasi.*

-Dalalarim –otalarim yag‘ir-yag‘ir yelkasi.

Ushbu gaplardagi sho‘r-sho‘r va yag‘ir- yag‘ir so‘zi gapda kesim vazifasini bajarib o‘zgargan tartibda joylashgan va ta’sirchanlikni oshirish maqsadida takror qo‘llanilgan. Ushbu gapni deparsiyalasak quyidagi o‘zgarishni ko‘rishimiz mumkin.

Dalalarim –bobolarim peshonasi sho‘r-sho‘r bo‘ladi.

Dalalarim-otalarim yelkasi yag‘ir-yag‘ir bo‘ladi kabi ifodalanishi kerak edi. Yozuvchi asarning ta’sirchanligini oshirish uchun kesimni takror qo‘llagan.

Muallif romanda qo‘shma gaplarning bog‘langan,ergashgan va bog‘lovchisiz turlaridan foydalangan. Masalan, *Ro‘molchalarining uchida noni bor,shuni yo‘l yo‘lakay tishlab yeb, paxta teraveradi.*(Tog‘ay Murod o‘sha asar.)

Bunda ergash gapli qo'shma gap qo'llanilgan va u ta'sirchanlikni oshirish paxta terayotgan qizlarning mehnatiga yuqori baho berish uchun qo'llangan. Tog'ay Murod bu roman orqali mustamlakachilik davrida xalq hayotining nihoyatda murakkabligini, mehnatiga yarasha rag'batlantirilmagan, bir umr mehnat qilib kosasi oqarmagan kishilar hayotini Dehqonqul timsolida badiiy talqin etadi. Badiiy asarda ega bilan kesim darak, so'roq, his-hayajon gaplar tarkibida kelib asar ta'sirchanligini yanada oshirgan. Ritorik so'roq gaplarga javob berib asarning ta'sirchanligini oshirib borgan. Masalan, *Paxta terishning nimasi qiyin? paxta terish gul terishday gap!* Ushbu jumlada mehnatsevar o'zbek xalqi qadr-qimmati yanada ijodkor tomonidan yanada ulug'langan.

Shuningdek, muallif bitta sodda gap mazmunini asarga bir necha sodda gaplar orqali kiritib asarning badiiy ta'sir kuchini yanada oshirgan. Masalan, *Oq tuproq dalam ko'saklari uch-uchidan yorildi. Oq tuproq dalam ko'saklari uch-uchidan ochildi. Oq tuproq dalamga oq oraladi. Bemavrid oq oraladi!* Ushbu keltirilgan matnda yerdan ayovsiz foydalanish natijasida yer o'z kuchini yo'qotganligi o'sha davrda tabiatga, ona tuproqqa qanchalar zarar yetkazilganligi, ona zaminga bo'lgan munosabat sodda gaplar takrori orqali yanada ta'sirchanlikni oshirgan va badiiy mahorat bilan kitobxonlarga yetkazilgan.

Asarda gap bo'laklari asosan o'zgargan tartibda qo'llanilgan. Ya'ni kesim egadan oldin keladi. Masalan, *Hayda-Hayda! -deya jerkiydi Oqqoshsho.* Bu yerda ham ega gapning oxirida qo'llanilgan. Bu gapda Oqqoshsho so'zini parsellyatsiya sifatida gapdan tashqariga chiqarish mumkin. Chunki gapda bu so'z alohida ta'kid olmoqda.

-Kunpayakun masjid joyida cherkov poydevorini tashladik. Cherkov bitsin, cherkovda nomoz o'qiydi! -deydi Oqqoshsho. Bu gapimiz ko'chirma gap

hisoblanadi. Asarda gapning asosiy markazi bo'lgan kesimning turli ko'rinishlari aks etgan.

Zim-ziyo supada qo'l ketib turadi. Tevarakka oqposhshona- oqposhshona boqib so'zlaydi:

-Sartlar! deydi.

Oyoqlari ostida yotmish kosovni miltiq qilib peshladi. Miltiq peshlab-peshlab odimlaydi.

-Chuchelalar! –deydi

Hovlini aylanadi–aylanadi narvondan tomlaydi. Tomda qishloq uzra miltiq o'qtalib-o'qtalib turadi.

–Yotilsin! –deydi.

Qishloqdan itlar xuradi.

Otamiz it xurmish tarafga miltiq o'qtaladi. Bu gapimizda gapning asosiy markazi bo'lgan kesim takror so'zlar orqali qo'llanilgan.

–Gapirsin–da endi, yuvuqsizlar hukumati qanday chikin odam ekan, Gapirsin-da endi.

Ana shunda otamiz onamizga yuz buradi.

Dehqonqul deydi. –Sho'rolar biz to'ng'ich siz kenjasiz deydi.

Bu gapimizda ham kesim egadan oldin kelib gap bo'laklari tartibi o'zgargan.

“Dunyoga kelib nimani ko'rdim? Bu gapimizda nima qilib? Kelib kesim ravishdosh bilan ifodalanayapti. Kesim orqali egani tiklaymiz Kim? Men dunyoga kelib nimani ko'rdim shaklida bo'lishi kerak edi. Bu gapimizni ham parsellyatsiyalasak, dunyoga kelib nima ko'rdim. Men. Tarzida ega gapdan tashqariga chiqariladi. Lekin yozuvchi bu gapda egaga ehtiyoj sezmagan.

“Beshik mozorim bo'ldi, dala mozoristonim bo'ldi. Mozorim bo'ldi sastavli

kesim. Gapda u ot soʻz turkumi bilan kelib, ot kesim boʻlib ifodalanayapti. Gapning egasi beshik soʻzi bosh kelishik formasida kelgan. Xech qanday qoʻshimcha olmagan va bitta sodda tushunchani anglatadi.

Alp-alp odimlab boraman.

“Qoʻlingni koʻtar, bosmachi! “Miltiq oʻqtalib-oʻqtalib boraman.”

“Qimirlama, bosmachi “Miltiq tepkisini sharaq-shuruqlatib boraman. Otaman bosmachi, otaman!

Bir qoʻl yelkamdan ushlaydi.

Betlarimga shapatilaydi.

-Koʻzingni och Jamolliddinov, koʻzningni och! –deydi.

Ana shunda oʻzimga kelaman .

Shabkoʻrdir-da.

Ovozlaridan tanib olaman.

Ovozlarni tanib olaman-birovi joʻgʻrofiya boʻladi, birovi adabiyot boʻladi.

Joʻgʻrofiya oʻng qoʻlimdan olib keladi, adabiyot chap qoʻlimdan olib keladi.

Yotoqda bolalar pish-pish qotadi. (Togʻay Murod “Otamdan qolgan dalalar”. 56-bet.)

Yozuvchi dialogik nutq orqali oʻqituvchilarning ismlarini kiritmay Joʻgʻrofiya va Adabiyot soʻzlarini ishlatgan va sheva soʻzlardan yaʼni umumxalq tilidan foydalangan.

Oʻquvchilar Joʻgʻrofiya va Adabiyot deganda koʻz oldilariga oʻqituvchilarini keltirishadi.

Ziyod shu yotishda qaytib turmaydi. Ertasida turmaydi. Indini-da turmaydi. Joyidan qimir etmaydi. Koʻz ochmaydi, tuz totmaydi.

Men Ziyodni og‘ziga choy sovutib tutaman. –Choy ich, Ziyod oshna, choy ich, -deyman. Bu gapda gapning asosiy markazi bo‘lgan kesim takror qo‘llanilgan. Bu orqali yozuvchi badiiy ta’sirchanlikni oshirib qolmay balki o‘quvchilarda qo‘rqish, achinish tuyg‘ularini ham uyg‘otishga harakat qilgan.

Roman tilining tahlili shuni ko‘rsatadi-ki, yozuvchi Tog‘ay Murod asarda bosh bo‘laklarni qo‘llashda o‘ziga xos poetik uslub yarata olgan. Ayniqsa, uning uslubiga xos holat gapdan anglashilayotgan fikrga alohida ta’kid, urg‘u berishga qaratilgan. Gap bo‘laklarining qo‘llanilishida inversiya hodisasi, takror va parsellyativ birliklarning qo‘llanilishi asar tilini sodda o‘quvchiga tushunarli bo‘lishiga, xalq tiliga yaqinlashishiga olib kelgan. Bu muallifning til boyliklaridan unumli foydalana olganligini ko‘rsatadi.

1.2 Ikkinchi darajali bo‘laklarning ifodalanilishi.

Gapda bosh bo‘laklardan boshqa bo‘laklar ham qatnashishi, tabiiy. Lekin ular gapni tashkil etishda asosiy ro‘l o‘ynaydi. Shuning uchun ular gapning ikkinchi darajali bo‘laklari deyiladi.

Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari bosh bo‘laklarni aniqlash, ularning ma’noviy konkretlashtirish, fikrini to‘ldirish uchun xizmat qiladi.

Ikkinchi darajali bo‘laklar o‘z vazifasiga ko‘ra uch xil bo‘ladi.

1. Aniqlovchi (izohlovchi)
2. To‘ldiruvchi
3. Hol

Har bir leksik bo‘lakning o‘z leksik semantik va grammatik xususiyatlari mavjud. Bu bo‘laklar gap mazmunini kengaytirish aniqlashga izohlashga, to‘ldirishga xizmat qiladi.

Romanda ikkinchi darajali bo‘laklar ham semantik- grammatik tahlil qilinganda badiiy matnda to‘ldiruvchilarni ham parsellyat sifatida jumladan tashqariga chiqarish kuzatiladi.

Bunda alohida jumla maqomidagi to‘ldiruvchi kuchli ta’kid oladi. Masalan, *Gap yo‘q, so‘z yo‘q burchakda turgan yermoyini olibdi-da yelkasidan quyibdi.*

-Yelkasidan quyibdi? Yermoyini-ya? (173-bet)

Yermoyiniya parsellyatli konstruksiyada yermoyiniya? (Tog‘ay Murod o‘sha asar. 173-bet.) shakldagi to‘ldiruvchi –parsellyat sifatida mantiqiy va emotsional ta’kidni kuchaytirishga xizmat qilgan. Badiiy matnda to‘ldiruvchilarni parsellyat sifatida jumladan tashqariga chiqarish juda keng kuzatiladi. Shuni ham aytish joizki, to‘ldiruvchilarni har ikki turi ham, ya’ni vositasiz to‘ldiruvchilar ham

vositali to'ldiruvchilar ham parsellyat sifatida asosiy gaplardan tashqariga chiqarilishi va ta'kid olishi mumkin.

To'ldiruvchi shaklidagi parsellyatlar badiiy matnda ega va kesim shaklidagi parsellyatlarga qaraganda ancha kengdir. Misollarga e'tibor bering: "Ayolimiz quloq solmadi. Barini yuz-qo'lini yuvdi. Ishton kiymagichlarga ishton kiygizdi. Tashqari so'riga gilam to'shadi. Ko'rpacha soldi. Dasturxon soldi. Choy damladi (109- bet). Ushbu misoldagi gilam, ko'rpacha, dasturxon, choy so'zlari uyushgan to'ldiruvchi bo'lib, yozuvchi ularni parsellyat holatiga keltirib, bo'layotgan voqeaga e'tiborni qaratadi, ta'kidni kuchaytiradi. Shuningdek ushbu matnda "ishton kiymagichga" birikmasi ham to'ldiruvchi vazifasida kelib, ushbu birikma shevaga xos hisoblanadi, kinga degan savolga javob bo'ladi.

Aniqlovchi pozitsiyasidagi bo'lakning parsellyat sifatida gap tashqariga chiqarilishi ham yozuvchining badiiy niyatiga muvofiq holda amalga oshiriladi. Yozuvchilar badiiy matnda aniqlovchi shaklidagi parsellyatlarga ham murojat qiladi. Bunda aniqlovchining ikki turi ham qaratqichli aniqlovchi ham sifatlovchi aniqlovchi parsellyat bo'la oladi. Masalan, *"Ayolimiz dalalar uzra jimir-jimir etmish gulga termuldi.*

"Qirmiz-qirmiz... dumaloq-dumaloq" –dedi.

Bu gapda qirmiz-qirmiz va dumaloq-dumaloq aniqlovchilar parsellyatsiya hodisasiga uchragan yozuvchi g'o'za gulining ko'rinishini mohirona ta'riflagan va so'zlarni takrorlash orqali asarning ta'sirchanligini yanada oshirgan. Yozuvchi g'o'za gulining qirmiz-qirmiz va dumaloq-dumaloq ekanligini alohida takidlamochi.

Roman tilidagi aniqlovchilar haqida so'z ketganda, aniqlovchining takror qo'llanishi asar tilining ta'sirchanligini oshirishga katta xizmat qilganligini

alohida ta'kidlash o'rinlidir. Umuman olganda, nafaqat aniqlovchilarda balki boshqa gap bo'laklarida qo'llanilgan takrorlar ko'proq Tog'ay Murod poetikasini shakllantiruvchi asosiy badiiy vositalardan biridir. Misollarga e'tibor qarating: -Men jigiti gap aytdim, jigiti (180-bet).

Ushbu misolda "jigiti" yozuvchining ikki xil niyatini amalga oshirishga xizmat qilmoqda, yani "jigiti"(yigit) so'zining dialektal variantini qo'llash bilan asar tilida tipik qahramon xarakterini yarata olgan va takrorni qo'llash orqali bo'layotgan voqealarga ta'kidni kuchaytirgan.

Aniqlovchi shaklidagi parsellyatsiyalar badiiy matnda yozuvchining poetik maqsadini namoyon qiluvchi sintaktik vositalar hisoblanadi. Masalan, G'o'zapoya uchi shoda-shoda ko'sak bo'ladi. G'o'zapoya uchi ko'k-ko'k ko'sak bo'ladi. G'o'zapoya uchi moyakday-moyakday ko'sak bo'ladi. Bu gapimizda sifatlovchi aniqlovchi parsellyatsiya hodisasiga uchragan.

Chunki, yozuvchi g'o'zapoyaning qanday ko'sakda bo'lishini aniqlovchini takrorlagan holda gapimizning ta'sirchanligini oshirgan.

Asar tilida qo'llanilgan hollar haqida alohida ta'kidlash o'rinlidir deb hisoblaymiz. Chunki yozuvchi ish-harakatning biror xususiyatini kitobxon ongiga to'laqonli singdirish maqsadida takrordan, parsellyativ qurilmalardan juda ko'p foydalanadi. Shuningdek, asar tilida hollar yozuvchi maqsadidek kelib chiqqan holda gapning turli o'rinlarida kelishi ham ko'plab kuzatiladi.

Hol shaklidagi gap bo'laklari yozuvchi poetikasini shakllantirishga muhim sintaktik vosita sifatida xizmat qilgan. Masalan, quyidagi qurilmada hol vazifasidagi so'z asosiy gap tashqarisiga chiqariladi: -Ertasi fizika o'rganishdayin teraman.

Jon jahtim bilan teraman.

O'n kilo teraman. O'n kilo(202).

Asardan olingan ushbu matnda ikkita hol bo‘lagi parsellyat sifatida chiqarilgan. Birinchisi “jon jahtim bilan” ravish holi, ikkinchisi esa “o‘n kilo” daraja-miqdor hollari gap strukturasini ataylab bo‘laklarga ajratish orqali uslubiy jihatdan batafsil gapning ekspressiv variantini hosil qilgan. Agar yozuvchi “ertaga o‘n kilo teraman” tarzida ifodalaganda alohida urg‘u bilan aytiladigan bo‘lak bo‘lmas edi. Chunki gap hech qanday emotsionallikka ega emas. Unda qahramonning oddiygina ma‘lumoti keltirilgan xolos. Yuqoridagi parsellyatli gapda esa yozuvchi ma‘lum bir punktatsion o‘zgarish orqali “silliqlik”, “jonsiz” gapni, ya‘ni oddiy darak mazmunini ifodalaydigan gapni “harakatchan”, “jonli” gapga aylantirgan va maqsadga erisha olgan.

Quyidagi misolga e‘tibor bering: *-Havoda oppoq-oppoq bir nimalar uchdi. Havola-Havola uchdi. Aylana-aylana uchdi. Burala-burala uchdi*(105). Ko‘rib turganimizdek, asosiy gada (Havoda oppoq bir nimalar uchdi). Havoda nimadir uchganligi haqidagi xabarni ifodalamoqda. Lekin keyingi hol parsellyatlar esa (havola-havola, aylana-aylana, burala-burala) takror-takror holda qo‘llanilib, birinchi gapdagi oddiy xabarni, ish-harakat bilan bog‘liq holatni ajratib ko‘rsatish orqali ekspressivlikka erishmoqda. Parsellyat bilan bog‘liq holatni ajratib ko‘rsatish orqali ekspressivlikka erishmoqda. Parsellyat qurilmaning takror shaklda kelishi ham qaysi bo‘lakka qahramon e‘tibor qaratishni ta’kidlamogda.

Tog‘ay Murod poetikasida hollarning qo‘llanishi alohida e‘tiborga molikligini ko‘ramiz. Misollarga e‘tibor qarating.

Jo ‘ya cho ‘nqayib o ‘tirdim. Siljib-siljib g ‘o ‘za yaganaladim.

Men sug ‘urib-sug ‘irib g ‘o ‘za yaganaladim.

Men chimdib-chimdim g ‘o ‘za yaganaladim. Men qo ‘shqo ‘llab-qo ‘shqo ‘llab g ‘o ‘za yaganaladim(102).

Ayolimiz chaqolog'im yig'layapti deya, gurs-gurs beshi tebratdi.

Ayolimiz chaqolog'im yig'layapti deya, aytib-aytib beshik tebratdi(105).

Men tevarakka kami bilan raisona-raisona, ko'pi bilan raykomona-raykomona qaradim(129).

Misollardan ham ko'rinib turibdiki(asarda bunday misollar juda bisyor), hollarni so'zlashuv va shevaga xos talaffuz va tarkibda shakllantirish va ularni takror qo'llash orqali badiiyligni oshirgan va yozuvchining o'ziga xos poetik uslubi yaratilgan.

Shuningdek ikkinchi darajali bo'laklar gap tarkibida qo'llanilganda gapdagi bo'laklar o'zaro grammatik qo'shimchalarni oladi va o'zidan To'ldiruvchi hol va qaratqichli aniqlovchi gapda grammatik qo'shimchalarni olib o'zidan keyingi so'z bilan moslashuv va boshqaruv yo'li bilan grammatik munosabatga kirishadi.

Biroq Tog'ay Murod bu asarda asar voqealarining qayerda bo'lib o'tganligini ta'kidlash maqsadida, badiiy asarda shevaga xos so'zlardan,so'zlashuv nutqiga xos gap qurilishlaridan o'rinli foydalangan. Masalan: "*Peshonasini beshik tebratkich qo'yib uxladi*"(105).

Ushbu gapda "tebratkich" bo'lagi hol vazifasida kelgan va gapda qayerga? So'rog'iga javob bo'lib kelib o'rin holi hisoblanadi. Biroq yozuvchi bu so'zni o'zidan keyingi so'z bilan grammatik qo'shimcha orqali bog'lamagan.

Muallifning shevaga xos so'zlardan foydalanish mahorati ham badiiy asarning ta'sirchanligi oshiradi. Masalan: "*Dehqonqul aka, siz bir maydon oyoq qiling!*".

Xulosa qilib aytganimizda yozuvchi Tog'ay Murod o'zining"Otamdan qolgan dalalar" romani bilan prozada o'ziga xos uslubni yarata olgan adibdir.Uning asarlarining keng kitobxonlarga manzur bo'lishining asosiy

sabablaidan biri asarlarining xalq tiliga yaqinligidir. Qahramon tili orqali xarakterini ochib berish yozuvchi uslubida birinchi planda turadi. Yozuvchi o'z asarida so'zdan va gap tuzilishi qonuniyatlaridan mahorat bilan foydalana olgan. Hatto so'zlashuv va shevaga oid unsurlarda shunchalik ustalik bilan foydalana olganki, uni o'qigan kitobxon ularning ma'nosini kontekst orqali osongina tushuna oladi. Asar tilida qo'llanilgan gap bo'laklari o'ziga xosligi jihatidan boshqa asarlar tilidan farqlanadi.

II bob. Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarining lingvopoetik xususiyatlari.

Lingvopoetik tahlilda badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash ham muhim tamoyillardandir. Bunday vositalarning lingvistik va badiiy mohiyatini ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanishi va ifodalanishi mexanizimlarini aniq tasavvur qilish mumkin.

O‘tgan asrning 30-yillarida atoqli rus tilshunosi L.V.Shcherba matn lingvistik talqinining asosiy vazifasi “adabiy asarning g‘oyasi va u bilan bog‘liq emotsional mazmunni ifodalaydigan til vositalarini ko‘rsatish” ekanligini ta’kidlagan edi”³

Badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalari ana shu tarzda baholanadi.

Badiiy matnning lingvopoetik tahlilida badiiy adabiyot tilining, xususan tahlil etilayotgan matn tilining umumxalq tili, uning turli ko‘rinishlari va adabiy tilga munosabatini nazarda tutish ham yana bir tamoyildir. V.V.Vinogradov “Badiiy adabiyot tili haqida” nomli asarida ta’kidlanganidek badiiy adabiyot tilining tarixiy harakatini umumxalq tili hamda uning turlari tarmoqlanishi tarixidan tamoman ajratilgan holda o‘rganishning mumkin emasligi shubhasiz. Umumxalq tili, uning turli xududiy va ijtimoiy ko‘rinishlari bilan adabiy til o‘rtasidagi munosabatlar tabiatining o‘zgaruvchan bo‘lganligi uchun badiiy adabiyot tilining tarixiy harakatini umumxalq tili hamda adabiy tili bilan aloqalari, hankorligi ham tarixan o‘zgarib boradi.⁴ Shuning uchun badiiy matn nuqtai nazaridan o‘rganilar ekan, unda til birliklariga baho berganda bu birliklarning umumxalq tilidagi va adabiy tildagi maqomi xam inobatga olinadi.

O'zbek xalq qo'shiqlarining lingvopoetik xususiyatlarini o'xshatish, metafara, sifatlash kabi ko'hna usullarning tahlili misolida juda mukammal o'rgangan tadqiqotchi Yoqubbekova bu borada quyidagilarni ta'kidlaydi: "Xalq qo'shiqlari poetikasini tashkil etuvchi qo'shiq syujeti kompozitsiyasi, obrazlari kabi uzvlar asosida qo'shiqlarning lisoniy badiiyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qo'shiqning voqeyiy mohiyatining so'z orqali qay tarzda qaysi qonuniyatlar asosida ifoda etilayotgani-li, soniy badiiyati lingvistik xususiyatlari majmuidan anglashiladi."⁵

Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asarining lingvopoetik xususiyatlarini shunda ko'rishimiz mumkinki, ayrim hollarda yozuvchining ekspressivlikni, matiqiy-poetik ta'kidni yanada kuchaytirish maqsadi bilan asosiy-ba'zaviy gapdan parsellyat sifatida tashqariga chiqariladigan bo'lak yoki gap asosiy gapda ham saqlanadi, ayni bo'lak yoki gap alohida komunikativ birlik, ya'ni parsellyat sifatida ham takrorlanadi. Bunday holatlarda sintaktik-poetik quyuqlashuv juda kuchli bo'ladi, ana shu ma'noda bunday konstruksiyalar jiddiy lingvopoetik qimmat kasb etadi.

Bundan tashqari, "Otamdan qolgan dalalar" asarining tili takrorlarning qo'llanishi bilan boshqa asarlardan keskin farqlanadi. Shunisi xarakterliki, asar tilida gapning barcha bo'laklari takror qo'llanilganligini ko'ramiz.

2.1 Takrorlar lingvopoetikasi

Ayrim hollarda yozuvchining ekspressivlikni, mantiqiy-poetik ta'kidni yanada kuchaytirish maqsadi bilan asosiy-bazaviy gapdan parsellyat sifatida gapdan tashqariga chiqariladigan bo'lak yoki gap asosiy gapda ham saqlanadi, ayni bo'lak yoki gap alohida kommunikativ birlik ya'ni parsellyat sifatida ham takrorlanadi. Bunday holatlarda sintaktik-poetik quyushuv juda kuchli bo'ladi. Ana shu ma'noda bunday konstruksiyalar jiddiy lingvopoetik qimmat kasb etadi. Bunday parsellyativ konstruksiyalarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri tayanch qism-asosiy gap tarkibidagi ta'kidlamoqchi bo'lakning yangi semantik markazi sifatida takroran qo'llanilishi hisoblanadi.

Ega sintaktik pozitsiyasidagi bo'laklar takroriy qo'llaganda, u bilan bog'liq ma'noni kuchaytirish va asosiy diqqat-e'tiborni shu so'zga qaratish maqsad qilingan bo'ladi.

Masalan: -Dalalarim bir hafta bir hafta yahob suvladi.

Dalalarim bir hafta zaxlab suvsadi

Yoki shuningdek yana bir misol, Onamiz o'ksib-o'ksib yig'laydi. Onamiz uv-uv yig'laydi. Onamiz ovoz qo'yib yig'laydi.

Takror shaklidagi parsellyatlar asosiy qismning mazmun doirasiga aloqador bo'ladi. Bu o'rinda parsellyatning o'zini va o'zi tobe bo'lgan qismni poetik aktuallashtirishga xizmat qiladi. Ega sintaktik pozitsiyasidagi bo'lak takrorlanganda u bilan bog'liq ma'noni kuchaytirish va asosiy diqqat e'tiborni shu so'zga qaratish maqsad qilingan bo'ladi. Asos qismda to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol vazifasida kelgan bo'laklarda ham parsellyatlik potentsiali yuqori darajada bo'ladi.

Asosiy gap tarkibidagi bo'laklar tartibini o'zgartirish orqali takroriy parsellyatni shakllantirish ham poetik ta'kidni kuchaytiradi. Masalan, *Bir*

oqshom darvozamizda uchta odam qora beradi. Odamlar ostonamizda alang-jalang bo'lib turadi.

Onamiz bet bekitib-bet bekitib peshvoz boradi.

-Qani u, tuzemes? -deydi birov.

Onamiz anglamaydi-yer boqib tura beradi.

-Men sen churkadan so'rayapman.

-Qani u, tuzemes churka?

-Kim-kim deydi onamiz.

-Bosmachi ering qani, deyapman!

Onamiz ana shunda anglaydi. Xiyol yuz ochadi. –Ha –a otasimi? –deydi.- Otasi tog'lab ketib edi.

-Qachon keladi, tuzemes, churka?

-O'tin terib bo'lsa keladi-da.

Keluvchilar ket qayriladi.

-O'zi bir tuzemes churka bo'lsa, yana tag'in betini bekitadi-ya! –deydi.

Yuqoridagi parchada takrorlar orqali ta'sirchanlik yanada kuchaygan, o'tmishda xalq hayotining nihoyatda ayanchli ekanligi, mustaqillik uchun kurashgan kishilar xalq dushmani sifatida qoralanganligi takrorlar orqali ta'sirchanlikni oshirgan.

Ay, bir ayolimiz bor-da , ay, bir ayolimiz bor-da!

Bir vaqt lar suqsurday-suqsurday qiz edi! Bir vaqtlar chukkabel – chukkabel qiz edi!

Men ko'nglim ketib-ko'nglim ketib sovchi qo'yib edim.

Ming qilsa-da xolamizni qizi-da –darrov ha, deya qolib edi.

Men mana bunday to'y noma tarqatib-tarqatib to'y qilib edim:

Ushbu matnda ega, aniqlovchi, hol bo'laklari takrori ulardan

anglashilayotgan ma'noga e'tiborni tortadi va qo'shimcha vazifa yuklaydi.

*Atir gul hidlari olamga ketdi,
Quvnoq yoshligimiz voyaga yetdi.
Hatto tengdir bo'yimiz bo'yga,
Sizlarni taklif etamiz to'yga!*

Monologlar badiiy matnda lingvopoetik jihatdan alohida ahamiyatga ega nutq shakli hisoblanadi. Monologlar tarkibidagi qismlar miqdori va mazmuniy izchilligiga ko'ra mikromatingga teng ifoda shakli hisoblanadi.

*Kun olis boshim aylanadi.
Kun olis ko'zim yoshlanadi
Kun olis ichak-qornim tomog'imda bo'ldi.
G'arra-g'arra qusishdan armonim qolmadi.*

Ushbu monologik matnda "kun olis" birikmasining takror qo'llanishi ta'kidni kuchaytiradi, kitobxon e'tiborini shunga qaratadi.

*Salqintob-salqintob oqshom qo'ndi. Men tag'inda zaharlandim.
G'o'zalarim
tusi o'chdi. G'o'zalarim sap-sariq bo'ldi. G'o'zalarim entikdi.
G'o'zalarim xansiradi.*

Bu parchada yozuvchi ekspressivlikni, mantiqiy poetik ta'kidni yanada kuchaytirgan. Bunda aniqlovchi va ega takror holda qo'llangan va badiiylikni ta'minlashga xizmat qilgan.

2.2. Parsellyativ konstruksiyalar lingvopoetikasi.

Hozirgi bolgar badiiy nasrida parsellyatsiya hodisasini tadqiq etgan tadqiqotchi Stupkinaning ko'rsatishicha yozma nutqda parsellyativ qurilmalarning yuzaga kelishi olimlar tomonidan ancha ilgari qayd etilgan.

Xususan bolgar tilshunosi I.Xadjov o'tgan asrning 30-yillarida shunday konstruksiyalarni birinchi bo'lib tilga olgan. U gapning asosiy tarkibidan, vaqtidan oldinroq nuqta qo'yish yo'li bilan muayyan qismni uzib olish mumkinligiga e'tiborini qaratgan. Ayni shu o'rinda tadqiqotchi Stupkina rus tilshunosi L.Yu Maksimovning yozma nutqda gapni bo'laklash hodisasini ifodalash uchun 1936-yilda "Parsellyatsiya" terminini qo'llanilganligini, 50-yillarda tadqiqotchi Efremov ham ana shunday qurilmalar uchun "Parsellyatsiya" terminini taklif etganligini aytadi.

Parsellyativ konstruksiyalar bilan bog'liq muommolarni turli nuqtai nazarlardan o'rganish rus tilshunosligida ayniqsa XX asrning 2-yarmidan boshlab juda ham keskin tus olgan. Mazkur muammoning lingvistik jihatdan o'rganilishida Yu.V Vanikov,⁶ G.N.Rebokov⁷ va boshqa tilshunoslarning hissasi katta bo'ldi.

O'zbek tilshunosligida dastlab parsellyativ konstruksiyalar F.Isxoqov B.Maskapov kabi tilshunoslar tomonidan "Ilovali konstruksiyalar" nomi ostida o'rganilgan.

Parsellyatsiyaning bevosita mantiqiy lingvistik mohiyati mavjud sintaktik butunlikni kommunikativ bo'laklashdan, ilovaning bevosita mantiqiy –lingvistik mohiyati esa mavjud sintaktik butunlikka boshqa sintaktik birlikni ilova qilishdan iborat. Parsellyasiyalangan konstruksiyalarda parsellyat hamisha alohida kommunikativ birlik maqomida bo'ladi, ilovalı konstruksiyalarda esa ilova qism kommunikativ birlik maqomida bo'lishi ham, bo'lmasligi ham

mumkin.

Asarda" Sukut" hodisasini ham uchratamiz. Adabiyotlarda sukut ellipsisning bir ko'rinishi sifatida talqin qilinadi. Bu usuldan badiiy matnda quyidagi maqsadlarda foydalanganligini kuzatishimiz mumkin: 1. Qahramon nutqining biror-bir sabab bilan uzilishi va tugallamay qolganligini ifodalashda: -Bu tuproqda qaraydi, (T.Murod) 2. Tinglovchi e'tiborini tortish maqsadida so'zlovchining atayin jim qolishini ifodalashda: -Ga' lo'ndasi... *Shvetsiya vaziri Falonchiyev janoblari aytganlariday, bu tuproq O'rusiya tojidagi oliy qimmat dur, ha, dur!* (T.Murod) 3. Qahramonning ma'lum muddat o'ylanib qolganligini ifodalashda: -O'zi... *poshsho kattami, va'zir kattami?* (Tog'ay Murod). - *Bolalarim...* -*deydi. Oppoq soch odam lablarini cho'chchaytirib-cho'chchaytirib o'ylab qoldi.* -*Bolalarim...* -*deydi. -Men sizlarni bola deyishgayam tilim bormayapti. Sizlar kattalar hayotini boshdan kechiryapsiz.* (T.Murod).

Parsellyat konstruksiya asardagi muallif nutqida ham, qahramonlar nutqida ham keng qo'llaniladi. Ayniqsa monologik va dialogik nutq shakllarida bunday tuzilmalar tamoman o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Mutaxassislar parsellyatsiya tashqi shakl jihatidan og'zaki nutqqa xos konstruksiyalarni eslatga ham, u kitobiy sintaksis hodisasi ekanligini ta'kidlaydilar. Tilshunos M.Yo'ldoshev Parsellyatli konstruksiyalarning" birlamchi vazifasi asosiy gapdagi eng muhim mazmuniy va mantiqiy uzvni alohida ta'kidlash yo'li bilan shu uzvni poetik aktualashtirishdan iboratligini ta'kidlaydi.

Parsellyat asosiy qismga nisbatan sintaktik struktura jihatidan mustqail pozitsiyada bo'lishiga qaramay, asosiy (mazmun) qismning mazmun doirasiga aloqador bo'ladi. Bu o'rinda parsellyatning o'zini va o'zi tobe bo'lgan qismni poetik aktualashtirishga xizmat qilishini alohida ta'kidlash lozim.

Parsellyatsiyani barcha yozuvchilar uslubiga bab-barobar xos usul sifatida baholab bo'lmaydi. U, tabiiyki har bir yozuvchining individual uslubiga xos, badiiy-individual sintaksis hodisasidir.

Parsellyatli qurilmalar “Otamdan qolgan dalalar” asarida turli shakllarda qo'llanilganligini guvohi bo'lamiz. Ya'ni, ega shaklidagi, kesim shaklidagi, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol shaklidagi, shuningdek, gap va mikromatn shaklli parsellyatsiyalar yozuvchi maqsadini amalga oshirishda muhim poetik vosita sifatida qo'llanilgan. Bundan tashqari, parsellyatlar monologik nutqda ham, dialogik nutqda ham yozuvchining badiiy-estetik niyatiga bog'liq holda badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, dialogik nutqdagi parsellyativ qurilmalar nafaqat poetik ta'kid, balki tabiatan og'zaki va yozma nutqning aralash holatidagi murakkab kartinasini qulay tasvirlash imkoniyatiga egaligi bilan katta ahamiyatga molik hodisa hisoblanadi. Yozuvchi badiiy matnda bunday konstruksiyalarga murojaat qilish orqali ta'kidlashni istagan ma'lum bir so'zni yoki gap ichidagi muhim fikr ifodalovchi bo'lakni alohida gap sifatida taqdim qilish va og'zaki so'zlashuv nutqi intonatsiyalarini aniq aks ettirish imkoniyatiga ega bo'ladi:

Bu dunyoda bitmaydigan ish bormi. Gaplashdim. Harakat boshlangan. Kutib tur. Lekin yigirma besh foizi ularniki.

Bemalol , - jon holatda ikkala qo'lini siltadi Isomiddin. – Uchalasi bir millionga yaqin turadi. Men uch yuz ming beraman. Oldindan.

Xullas, Tog'ay Murodning badiiy matnidagi parsellyativ qurilmalarning qo'llanish o'rni va tarzini quzatish orqali badiiy matnning sintaktik tabiatini yanada teranroq anglashimiz mumkin. Shuningdek, parsellyativ konstruksiyalarning matndagi realizatsiyasini tekshirish orqali og'zaki nutqning kashf etilmagan imkoniyatlarini hamda bu boradagi yozuvchining lisoniy

mahoratini ham yuzaga chiqarish mumkin. Parsellyat asosiy gap ichiga konstruksiyaning leksik grammatik tarkibini o'zgartirmagan holda kira oladi, ya'ni parsellyatsiyalangan konstruksiyani deparsellyatsiyalash mumkin. Ilova esa asosiy gap ichida konstruksiyaning leksik grammatik tarkibini o'zgartirmagan holda kira olmaydi.

Parsellyatsiyadagi mavjud ma'lumotning muhim qismini ta'kidlash maqsadi bilan shu qism ifodasi ajratiladi, izoh maqsadi bilan ifoda ilova qilinadi.

Parsellyatsiyalangan va ilovali konstruksiyalardagi sintaktik jarayonlarning yo'nalishi bir-biridan prinsipial farq qiladi, ya'ni parsellyatsiyadagi sintaktik jarayon harakati markazdan qochma – o'ngga yo'nalgan, ilovali konstruksiyalarda esa sintaktik jarayon harakati markazga intilma-chapga yo'nalgan.

Sodda yoki qo'shma gapni muayyan ekspressiyani yuzaga keltirish maqsadi bilan bo'laklash va bo'laklangan qismlardan birini gapdan tashqariga alohida komunikativ birlik sifatida chiqarishdan iborat ekspressiv sintaksis usuli segmentatsiyadir. Parsellyatsiya ham yaxlit sintaktik strukturani bo'laklash va bu bo'lakni asosiy gap oxiriga-ta'kidli pozitsiyaga chiqarishdir. Shuning uchun parsellyatsiyani segmentatsiyaning alohida bir ko'rinishi tarzida baholash mumkin.

Ammo tilshunoslikda segmentatsiya deganda, asosan, bo'laklangan qismni gapning oldiga chiqarish nazarda tutiladi. Bu munosabat bilan tadqiqotchi Zelepuken shunday yozadi: "Jumladagi muayyan unurni ta'kidlash va unga urg'u berish jihatidan segmentatsiya va parsellyatsiya o'zaro bog'liq. Lekin segmentatsiyaning tasniflovchi belgisi parsellyatsiyadagiday jumlaning remasini emas, balki temasini intonatsion ta'kidlashdir. Mana shunga ko'ra,

parsellyatsiyani rematik segmentatsiya sifatida tavsiflash mumkin”.

Bu fikrda parsellyatsiya va segmentatsiyaning o‘xshash va farqli jihatlari aniq ko‘rsatilgan.

Tadqiqotchi Xudoyberganova haqli ravishda ta’kidlaganidek, “Matnning biror elementini alohida-uning boshida yoki ohirida ajratib ifodalash juda ko‘p yozuvchilarning ifoda usuliga hos xususiyat”dir.

Segmentatsiya parsellyatsiya hodisalari ekspressiv sintaksisdagi o‘ziga xos usul bo‘lib, bir qator umumiyliklarga ega, xususan: Xar ikki xodisani ham mohiyati yaxlit sintaktik butunlikni bo‘laklab, ikki yoki undan ortiq kommunikativ birlikka ajratishdan iborat. Segmentatsiya va parsellyatsiya o‘rtasida ularni alohida-alohida hodisalar sifatida baholashga imkon beradigan farqli jihatlari ham mavjud, xususan: segmentatsiya ta’kidlanmoqchi bo‘lgan qismni asosiy gapning oldiga alohida kommunikativ birlik sifatida chiqariladi. Masalan,

-Endi domla ota-enamiz shundayin ot qo‘yib edi-da.

-Domla? Qanaqa domla? –dedi kosagul shoir. –Domla machit – madrasalarda bo‘ladi! Sotsialistik xalq shoirlarimiz! Bu gapimizda domla so‘zi segmentatsiya sifatida gapdan tashqariga chiqarilgan.

Parsellyatsiya hodisasida esa ta’kidlanmoqchi bo‘lgan qismni alohida kommunikativ birlik maqomida gapning oxiriga chiqarishdan iborat usuldir. Ekspressiv sintaksis bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotchilarda paranteza termini ostida o‘rganilayotgan hodisa ba’zi jihatlari bilan parsellyatsiyaga o‘xshab ketadi. Har ikki hodisa ham badiiy adabiyotda yozuvchining muayyan maqsadi talabiga ko‘ra reallashadi va lingvopoetik qimmat kasb etadi. Parantezada ham, parsellyatsida bo‘lgani kabi, gap asos va unga aloqador qism “bo‘laklangan” bo‘ladi. Lekin parsellyativ konstruktsiya

deparsellyatsiyalanganda hech qanday o'zgarishsiz bitta yaxlit gap yuzaga kelishi hamisha kuzatiladi. parantezali konstruksiyalarda esa qavs, vergul yoki boshqa tinish belgilari bilan ajratilgan gap o'zicha mustaqil holda shakllanadi. Masalan:

-Manavi sinf rahbaridan so'rang, aytib beradi.

-Buyoq chin aytayapti, o'rtoq direktor. Abil mergan odam emas. Bir safar bolasini darsda bir-ikki tutib edim. Otasiga borib aytibdi. Bir mahal mergan uyimizga bostirib borsa bo'ladimi.

Yelkasida miltiq!

-Xa-da, miltiq bo'lgandayam-qo'shog'iz miltiq;

Bu gapimizda miltiq so'zi paranteza hodisaga uchragan.

Parantezali konstruksiyalarda esa qavs, vergul yoki boshqa tinish belgilar bilan ajratilgan gap o'zicha mustaqil holda shakllangan.

Asarda biz ellips hodisasini ham kuzatishimiz mumkin. Ellips (yunoncha tushish, tushirilish) deb nutqiy aloqa jarayonida gap bo'laklarining muayyan maqsad bilan tushirilish hodisasiga aytiladi.

Ellipsisni maqollarda juda ko'p uchratamiz. So'zlarning tushirilishi natijasida yozuvchi asarda maqollardan foydalanadi. Chunki bu usul so'zlarni tejash uchun yordam beradi.

Masalan, *Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda!*

O'ynab qo'yay! Maqoldan-da o'ynab qo'yay, shu maqolni aytmish eldan-da o'ynab qo'yay! (75)

Asarda xalq maqollari juda ham ko'p keltirilgan.

Qish oladan, yoz moladan, deydilar. Bu demak-qishda yer suvlasang ola qoldirma, ko'klamda yer haydasang bemola qoldirma, demakdir.

Boisi-ko'klami shudgordan keyin yer oralari xavol-xavol bo'lib qoladi.

Ana shu xavollardan shamol kiradi-kiradi-yer nami qochib qoladi.

Dala ko'ngli nozik bo'ladi vaqt-bevaqt oralay bersa ko'ngliga oladi.

Dala fe'li injiq bo'ladi-bot-bot traktor sola bersa aynib qoladi.

Dala te'kilanib qoladi. Dala zinchanib qoladi. Dala tosh-metin bo'lib qoladi. Bu jumlamizda metafara hodisasini ko'rishimiz mumkin. Chunki dalaning fe'li injiq bo'lmaydi. Yoki bo'lmasam quyidagi misolda ham shunday hodisa keltirilgan. Masalan, Dalalarim entikdi.

Dalalarim uyg'ondi. Dalalarim ko'z ochdi. Dalam meni imladi.

Kim entikadi? Toliqqan inson entikadi yoki bo'lmasam chaqaloqlar onasini qo'msab entikib yig'laydi. Dehqonqulning dalalari qarovsiz qolganida Dehqonqulning kelishiga entikishini yozuvchi badiiy ta'sirchanlikni oshirish uchun ifodalagan.

Dalalarim uyg'ondi.

Dalalarim ko'z ochdi.

Bu jumlada esa xuddi inson ertalab uyqudan turgani kabi dalalar ham erta bahorda uyg'onishini yozuvchi juda chiroyli ifodalagan.

Dalam meni imladi, dalam meni chorladi. Bu misolda ham badiiy tasvir aks ettirilgan. Chunki biror bir kishini boshqa birovni o'ziga qaratish uchun imlab chaqiradi. Dalanng tili bo'lmaydi. Shuning uchun ham yozuvchi asarda imladi so'zini ishlatdi.

Dalalarim uzra mezonlar uchmay qoldi.

Dalalarim uzra sokin ham g'amgin bir holat cho'kdi.

Dalalarim mudrab-mudrab oldi.

Dalalarim ko'z ilib-oldi.

Dalalarim uyquga ketdi.

Men endi dalalarimga qo'l urishdan tiyildim.

Dalalarim uzra mezonlar uchmay qoldi.

Yozuvchi bu bilan nima demoqchi? Kuzda dalalarda mezon shamoli uchib yuradi. Qish kelganligi uchun dalada harakat toʻxtaganligini ifodalagan.

Dalalarim mudrab-mudrab oldi. Dalada harakat tugaganligi uchun qishki uyquga ketadi. Qish kelganligi uchun oʻzi ham dalaga qoʻl urmasligini yozuvchi asarda soʻzlarni takrorlagan holda asarning badiiy taʼsirchanligini yanada oshirgan.

Badiiy matnda parsellyatsiya nutqni intonatsion mustaqil va aktuallashtirgan qismlarga ekspressiv boʻlaklash usuli sifatida keng tarqalganligini koʻp tadqiqotchilar tomonidan u yoki bu tarzda aytib oʻtilgan.⁴³

Parsellyatsiya natijasida murakkab “ogʻir”, hajman katta sintaktik struktura nisbatan ixcham jummalarga boʻlaklanadi. Nisbiy semantik va sintaktik mustaqil konstruksiyalar miqdori oshadi, bunday holatlarda albatta, tegishli qismlarning mantiqiy–poetik taʼkidlanish darajasi ortadi. Badiiy matnni lingvopoetik tadqiq etgan mutaxassislar bunday holatlarda “nutqning sintaktik quyuqlashuvi” yuzaga kelishini alohida taʼkidlaydilar. Nutqning bunday sintaktik quyuqlashuvi, tabiiyki, uning-badiiy estetik quyuqlashuvi olib keladi, yaʼni sintaktik-semantik quyuqlashuvi lingvopoetik quyuqlashuvi bilan birgalikda vaqelanadi. Aytish mumkinki, badiiy matnda sintaktik-poetik quyuqlashuv yuz beradi. Bu, albatta, matn badiiyatini taʼminlashda oʻziga xos sintaktik zaxiradir.

Kattalardan doʻqlar eshitdim, lalmi-lalmi, Qanday doʻqlar lalmi-lalmi. Bunda ravish holi alohida taʼkid olib, parsellyatsiya hodisasiga uchraydi. Asarda yozuvchi bu soʻzni parsellyat sifatida gapdan tashqariga olib chiqmagan boʻlsa ham, soʻzlar takror qoʻllanilganligi uchun kitobxonlar eʼtiborini oʻziga tortadi. Yaʼni boshqacha emas lalmi-lalmi doʻqlar eshitganligi takror soʻzlar orqali

ifodalangan.

Shunda, peshonamda chuqur-chuqur ajinlar chiziq tortdi. Shunda, yanoqlarimda uzun-uzun ajinlar chiziq tortdi. Shunda lablarimda mayda-mayda ajinlar chiziq tortdi.

Butun bet-boshim boj-boj ajin bo‘ldi.

Butun bet-boshim g‘ij-g‘ij ajin bo‘ldi.

Shunda peshonamda ajinlar chiziq tortdi. Chuqur-chuqur. Bu gapda aniqlovchini parsellyatsiya sifatida gapdan tashqariga chiqrish mumkin. Parsellyativ konstruksiyalarning qo‘llanilish o‘rni va tarzini kuzatish orqali badiiy matnning sintaktik tabiatini yanada teranroq anglashimiz mumkin bo‘ladi.

Shuningdek bunday konstruksiyalarning badiiy matndagi realiziatsiyasini tekshirish orqali og‘zaki nutqning hali kashf etlmagan imkoniyatlarni hamda bu boradagi yozuvchining lisoniy mahoratini o‘rtaga chiqarishimiz mumkin.

Chigitlar unib qolmasin deya, shamollatib,-shamollatib oldim. Bu gapimizni tahlil qilar ekanmiz vositasiz to‘ldiruvchi belgisiz qo‘llangan. Gapda sabab holi takroriy qo‘llangan.

Kattalardan lalmi-lalmi do‘qlar eshitdim.

Ammo gapimni qaytib olmadim. Bu gapimizning ravish holini parsellyatsiya sifatida gapdan tashqariga chiqarish mumkin.

Lekin yozuvchi aniqlovchini parsellyatsiya sifatida gapdan tashqariga chiqarmagan. So‘zni takror qo‘llagani uchun kitobxon peshonasidagi chiziqlar qanday ekanligini anglay oladi.

Asarda asosiy gap tarkibidagi bo‘laklar tartibini o‘zgartirish orqali takroriy parsellyatning shakllantirish ham poetik takidni kuchaytiradi.

G‘o‘zalarim qirq kunlik bo‘ldi.

G‘o‘zalarim qirqida suvsadi.

G‘o‘zalarim suvsaganida qanday bildim?

Bir qarich yer ostida bir siqim tu‘roq oldim. Tuproqni mahkam-mahkam siqimladim.

Tuproq bir-biri qovushmadi.

Tuproq chochilib-chochilib turdi.

Demak-g‘o‘zalarim suvsadi.

Chirillatib bir barg uzib oldim.

Bargni qo‘sh qo‘llab bir bukladim.

Barg qoq o‘rtasidan o‘tmish yo‘g‘on tomir qirs etib sinmadi.

Demak-g‘o‘zalarim suvsadi.

Men g‘o‘zalarim suvladim.(Tog‘ay Murod yuqoridagi asar) Bu parchada yozuvchi so‘zlarni takror qo‘llash natijasida poetik ta’kidni yanada kuchaytirgan. Ritorik so‘roq gaplarga asarda javob qaytarilgan. Yoki bo‘lmasam quyidagi misollda takror so‘z segmentatsiya hodisasini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, men har yil ana shu eski texnika tufayli dalalarim bosh-adog‘idan yigirma tonna oppoq paxtani omon olib qolaman. Yigirma tonna oppoq-oppoq paxta!

Bunda oppoq-oppoq so‘zini gapdan tashqariga chiqarish mumkin.

Oppoq-oppoq. Yigirma tonna paxta!

Bu so‘zimizni segmentatsiya hodisasi sifatida gapning oldiga alohida kommunikativ birlik sifatida chiqarish mumkin.

Badiiy matnning lingvopoetik tahlilida badiiy adabiyot tilining, xususan, tahlil etilayotgan matn tilining umum xalq tili, uning turli ko‘rinishlari va adabiy tilga munosabatini nazrda tutish ham yana bir tamoyildir. Tatqiqotchi “Badiiy adabiyot tili haqida” nomli asarida ta’kidlaganidek, badiiy adabiyot tilining

tarixiy haraklatini umumxalq tili hamda uning turli tarmoqlanishi tarixidan va adabiiy til tarixidan tamoman ajratilgan holda o'rganishning mumkin emasligi shubhasiz. Umumxalq tili, uning turli hududiy va ijtimoiy ko'rnishlari bilan adabiiy til o'rtasidagi munosabatlar tabiatining o'zgaruvchan bo'lganligi uchun badiiy adabiyot tilining umumxalq tili, shuningdek, adabiiy til bilan aloqalari, hamkorligi ham tarixan o'zgarib boradi. Shuning uchun badiiy matn lingvopoetik nuqtai nazardan o'rganilar ekan, undagi til birliklarga baho berganda shu birliklarning umumxalq tilidagi va adabiy tildagi maqomi ham inobatga olinishi, ular qiyoslanishi maqsadga muvofiq, shunday mazkur birliklarning ,matndagi badiiy qimmatini va yozuvchi mahorati yanada aniq ko'rinadi. Masalan, muayyan badiiy matndagi bir so'zning arxaik, tarixiy yoki yangi so'zligini yoxud jargon ekanligini belgilash uchun, albatta, uni umumxalq va adabiy til leksikasi bilan qiyoslash zarurati tug'iladi. Morfologik shakllar, sintaktik birliklar, talaffuzga daxldor o'zgachaliklarning badiiy qimmatini ham umumxalq va adabiy tilga qiyoslamasdan tayin etish qiyin.

Umumxalq tilining turli qatlamlariga xos birlik va shakllarining badiiy matnda qo'llanilishi bilan bog'liq tekshirish yoki qahramonlarning o'zlari mansub bo'lgan toifa yoki hudud tilidan qay darajada istifoda qilinishini o'rganish kabilarda ham mazkur tamoyillarga ko'ra ish tutish kerak.

Asarda ikkinchi darajali bo'laklar to'ldiruvchi, aniqlovchi belgisi va belgisiz qo'llangan.

Bobomiz hovlisi Farg'onada bo'ladi. Bu gapimizda qaratqich aniqlovchi belgisiz qo'llanilgan. Bobomizning hovlisi shaklida bo'ladi.

Asarda gaplar o'zgargan tartibda ham uchraydi. Masalan,

Bobomizdan nima- bo'ladi ketmon bo'ladi.

Ketmon emas-bir baloi bad bo'ladi.

Sir emaski, badiiy matn badiiy estetik butunlik sifatida benihoyat murakkab, serqatlam hodisa. Badiiy matnda ifodalangan asosiy g'oya – fikr – mazmunni tushinish , anglash shunchaki ish emas, balki ancha qiyin va murakkab ijodiy jarayondir. Badiiy asarda mutlaqo o'ziga xos, goh ochiq, goho yashirin, turli ishoralar, tag ma'nolar kosa tagidagi nim kosalar bilan shamoyil to'gan mazmuning ma'nosini to'ri anglash ma'naviy–madaniy, aqliy-hisii va lisoniy –estetik faoliyat natijasida mumkin. Har qanday matning mazmunini tushinish uchun til leksikasida grammatikasini bilish zarur va yetarli bo'lsa, badiiy matnning mazmunini idrok etish uchun bundan tashqari ayni paytda badiiy matnning o'ziga xos lisoniy- poetik qonuniyatlarini ham bilish lozim bo'ladi. Filologik ta'limda talabalarda badiiy matnning ana shunday lisoniy – poetik qonuniyatlarini bilish lozim bo'ladi.

Masalan, tadqiqotchi N.Mahmudovning bir qator maqolalarida ayrim shoir va yozuvchilar asarlari tilining lingvopoetikasi bo'yicha qiziqarli fikrlar ilgari surilgan. Badiiy matnni to'g'ri filologik talqin, tahlil va idrok etish, undan maksimal estetik zavq va axborot olish malakasiga erishishda lingvopoetika asosiy omildir.

III bob. Ishning amaliyotga tadbiqu.

3.1 Ta'lim bosqichlari dastur va darsliklarida Tog'ay Murod ijodi.

XX asrning 70-yillarida o'zbek adabiyotiga bir qator iste'dodli shoir va yozuvchilar kirib keldi. Ular orasida Murod Muhammad Do'st, Erkin A'zam, Hayriddin Sultonov, Tog'ay Murod kabi nosirlar, Shavkat Rahmonov Xurshid Davron, Usmon Azim, Muhammad Rahmon kabi shoirlar bor edi.

Ta'lim bosqichlari dastur va darsliklarida Tog'ay Murod ijodining o'rnini katta. Xususan darsliklarda ko'radigan bo'lsak 6-sinf adabiyot kitobida Tog'ay Murod hayoti va ijodi hamda "Yulduzlar mangu yonadi" qissasidan boblar berilgan.

Demak, Tog'ay Murod hayoti va ijodi bir soat "Yulduzlar mangu yonadi" qissasidan boblar 2 soatga mo'ljallangan.

"Tog'ay Murod dunyoning omonligi, jamiki go'zalligi aynan shu odamlar tufayliligi ekanligini ko'rsata oldi, isbotlay oldi. Yozuvchini tarjimai holi ham o'z qahramonliklari singari oddiyginadir"

U janubiy viloyatlarimizdan bo'lmish Surxondaryoning Denov tumaniga qarashli Xo'jasaot qishlog'ida 1948-yilda tug'ilgan.

Qishloqdagi o'rta maktabda o'n yil o'qigach, 1966-1972-yillarda hozirgi O'zbekiston Milliy universitetning jurnalistika fakultetida ta'lim oldi.

Bu fakultet o'sha yillari yosh iste'dodlarga o'z ijodiy yo'lini to'ishi, jiddiy asarlar yozib dastlabki muvoffaqiyatlarni qo'lga kiritishda muhim maktab ro'lini o'ynagan edi.

Fakultetdagi qaynoq, nisbatdan erkin ijodiy muhit, o'z davrining yirik shoir yozuvchilari bilan tez-tez o'tkazilib turadigan uchrashuv-muloqatlar, Yotoqxonalarda to tongga qadar tugamaydigan she'riyat kuchlari bularning bari istedad g'unchalarining tez yetilishi kamol topishida jiddiy turtki ro'lini

o'ynaydi. Ko'p mualliflarni Respublika matbuotida muntazam qatnashishi ham ayni shu fakultetda o'qib yurgan yillariga to'g'ri keladi. Tog'ay Murod talabalik paytidayoq o'nlab hikoyalar yozgan bo'lsada, ularni e'lon qilishga shoshilmas, o'zidan, bilimlaridan ko'ngli to'lmasdi. U iloji boricha ko'proq o'qish, bu orqali esa faqat o'zimizning ijodkorlarnigina emas, balki dunyoning eng zo'r adiblari tajribalarini ham o'zlashtirishni istardi. Tog'ay Murod 1982-yildan 1985-yilgacha "Fan va turmush" jurnalida xizmat qildi. Tog'ay Murod o'zining ijodiy rejalariga birovlarining aralashishini, unga ta'sir o'tkazishiga bo'lgan urinishlarini hecham yoqtirmas, shovqin-suronli davralardan o'zini olib qochar edi. Butun fikri-zikri o'qib-o'rganish, tinimsiz ijodiy mehnat qilish bilan band bo'lardi. Shu tufayli ham yozuvchi sifatida xalqqa ancha tanilib qolgan bo'lishiga qaramay, 1985-1987- yillar ichida Moskvada Jahon adabiyoti institutida ham tahsil olib qaytdi.

Tog'ay Murodni iste'dodli yozuvchi sifatida ko'rsatgan dastlabki yirik asar 1976-yilda dunyoga keldi. Bu "Yulduzlar mangu yonadi" nomli qissa edi.

Mazkur asarda qon-qoniga singib ketgan, ming yillar mobaynida unutilmay, elda ardoqlanib kelayotgan tarixiy qadriyat-kurash, kurashchi polvonlar, ular orasidagi muomila-munosabatlar, ziddiyatli hayotiy muommolar qalamga olingan.

Tog'ay Murodning qissalari, "Otamdan qolgan dalalar" romani biz aziz kitobxonlar tomonidan sevib o'qiladi. "Otamdan qolgan dalalar" romanida erksiz odamning bora-bora o'zligini yo'qotishi, bir buyumdek mavjud bo'ladigan holga kelishi muqarrar ekanligi o'zining san'atkorona ifoda etilgan. Dehqonqul sovet davri adabiyotida zavq-shavq bilan qalamga olingan mehnat qahramonlariga parodiya tarzida yaratilgan. U-totalitar tuzum, qizil imperiya siyosati tarbiyalab yetishtirgan "mehnat kishisi" "yangi inson" timsoli: mustabit

hokimiyat munofiqona mafkurasning tirik qurboni. Dehqonqul sho'rolar tuzumining deyarli tengdoshi. Yozuvchi adabiyotimizda urf bo'lgan yo'ldan bormaydi, qahramon taqdiri orqali davrini, "satsiolistik" jamiyat tarixini ifodalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydi. Yozuvchini birinchi galda Dehqonqulni qul, mute qilib shakllantirgan hayotiy omillar qiziqtiradi. Dehqonqul obrazi orqali yozuvchi o'zi niyat qilganiday o'zbek xalqining, o'zbek dehqonining "o'ziga xos" haykalini yaratdi.

Biz Tog'ay Murod hayoti va ijodini o'rganar ekanmiz uning asarlari nafaqat dolzarb mavzusi, balki badiiy jihatlari bilanda adabiyotimizda jiddiy voqea bo'ldi, degan xulosa kelib chiqadi.

Uning asarlarida bizning milliyligimiz, urf-odatlarimiz, an'analarimiz ko'proq aks etgan.

3.2.“Yulduzlar mangu yonadi” qissasidan ochiq dars ishlanmasi.

Darsning maqsadi:

1. **Ta’limiy maqsad.** Tog‘ay Murod hayoti va ijodi yuzasidan olingan bilimlarni mustahkamlash o‘quvchilarni “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi mazmuni bilan tanishtirish, asardagi obrazlar olami, xarakterlar badiiyligi va hayotiyliigi darajasini anglatish.

2. **Tarbiyaviy maqsad.** O‘quvchilarni Vatanga muhabbat sadoqat ruhida tarbiyalash ularda o‘zaro xamkorlik tuyg‘ularini shakllantirish, o‘z haq-huquqlarini bilishda himoya qila olish kabi xislatlarini rivojlantirish.

3) **Rivojlantiruvchi maqsad:** O‘quvchilaraning og‘zaki nutq malakalarini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash-doirasini kengaytirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

Dars turi. O‘quvchilar bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantiruvchi va umumlashtiruvchi metodlar.

Darsda foydalaniladigan usullar. “Aqliy hujum” “klaster”, “5 ta besh”

3. Yangi mavzuni mustahkamlash:

“Falsafa usuli”

“Kim gapirdi?” usuli

O‘tgan mavzuni mustahkamlash.

“Aqliy xujum” usuli yordamida o‘quvchilarning o‘tilgan darsda olingan bilimlari sinab ko‘riladi. Bu usul shartiga ko‘ra o‘quvchilarga tezkor savollar beriladi.

Tog‘ay Murod qayerda tug‘ilgan? (Tog‘ay Murod Surxondaryoning Denov tumaniga qarashli Xo‘jasoat qishlog‘ida 1948-yili tug‘ildi.

1) Tog‘ay Murod dastlabki yirik asari qaysi? (“Yulduzlar mangu yonadi”)

1976.

2) Qoplonbek va Oymomo kabi obrazlar Tog‘ay Murodning qaysi asarida uchraydi? (“Oydinda yurgan odamlar” qissasidagi obrazlar.)

Darsda foydalaniladigan jihozlar.

6-sinf adabiyot darsligi, Tog‘ay murod asarlari, internet ma’lumotlari, oq qog‘ozlar adibning ibratli fikrlari, rag‘bat kartochkalari, plakatlari.

Darsning borishi:

Darsning tashkil etilishi: Salomlashish, davomadni aniqlash, sinf tozaligiga e’tibor etish, o‘quvchilarni darsga xozirlab, muloqat muhitini yaratish.

Dars adib Tog‘ay Murodning quyidagi so‘zlari bilan boshlanadi;

Kelajakni bilish uchun o‘tmishdan saboq olish kerak. Ana shu saboqlar zaminida kelajak rejalarini tuzish kerak.

Dars rejasi:

• O‘tilgan mavzuni mustahkamlash:

- “Ortiqchasini toping” usuli.
- “Aqliy hujum” usuli
- “5 ta besh” o‘yini.

2 Yangi mavzu bayoni:

- “Klaster” usuli.
- “Sahnaviy ko‘rinish” usuli.

b) “5 ta 5” o‘yini orqali o‘tilgan mavzu yanada mustahkamlanadi. Bu o‘yinda 5 ta o‘quvchi doskaga chiqib Tog‘ay Murodning hayotiva ijodiga bog‘liq ma’lumotlarni navbatma-navbat 5 tadan aytishadi.

Bu o‘yin orqali o‘quvchilarni tezkorlikka o‘rgatiladi.

d) “Ortiqchasini toping” usuli yordamida o‘quvchilarning o‘tilgan darsda

olgan bilimlari sinab ko‘riladi. O‘quvchilar 3 guruhga bo‘linadi.

1-guruh **“Ma’naviyat”**

2- guruh **“Ma’rifat”**

3-guruh **“Madaniyat”** nomlari bilan ataladi.

3-guruhga chalkash berilgan ma’lumot lar to‘shiriladi.

Xo‘jand; Nilufar; “Zaynab va Omon “; “Vatandoshlar”; “Yulduzlar mangu yonadi”; Nizom; Qoplonbek va Oymomo; 1976-yil; 1948-yil; “Yovvoyi yo‘rg‘a”; “Denov” “Dehqonqul; Qodiriy nomidagi davlat mukofati”; “Javohar al Neru nomidagi Davlat mukofati”; “Qo‘shiq”; 55 yosh.

Tog‘ay Murod – Denov, “Vatandoshlar tahririyati, ““Yulduzlar mangu yonadi” qissasi”; “Qoplonbek va oymomo”, 1976 “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi dunyoga kelgan; 1948-yilda tavallud topgan; E.Seton –Tompsonning “Yovvoyi yo‘rg‘a” asarini tarjima qilgan; Dehqonqul “Otamdan qolgan dalalar” qahramoni, Qodiriy nomli davlat mukofotini olgan; Qo‘shiq qissasi; 55 yoshida vafot etgan.

Yangi mavzu bayoni:

- a) “Klaster” usuli orqali yangi mavzu boshlanadi. Bu usul orqali o‘quvchilarni noan’anaviy usulda o‘quvchilarning yangi mavzu haqidagi bilimlari tekshiriladi.



- b) “Sahnaviy ko‘rinish” usuli orqali o‘quvchilar o‘zlarini erkin tuta olish, nutq madaniyatiga rioya etish kabilarni o‘rganishadi.

Yangi mavzuni mustahkamlash.

“**Falsafa**” usuli yordamida yangi mavzu mustahkamlanadi. Guruhlar o‘zaro hamkorlikda qissadagi voqealar, nega Bo‘ri polvon, Tilovberdi o‘g‘li bo‘lsa ham Abrayni yutdi deb aytganini, Tilovberdining nega otasidan xafa bo‘lgani haqida munozara olib borishadi.

“**Kim gapirdi**” usuli yordamida har uchchala guruhga alohida qissa qahramonlarining nutqi yozilgan audio tasma eshittiriladi yoki qog‘ozlar topshiriladi.

“**Ma’naviyat**” guruhiga

“Meni bir umr mag‘lub etdim, qoyil qildim, deb yurib edingmi. Oshna, adashasan... Hozir ko‘rasan, mening kim ekanimni oldingdan salom berib o‘taman...” (Nasim polvon)

“**Ma’rifat**” guruhiga

O‘g‘il yig‘lab-yig‘lab aytdi.

-Men yiqitganda g‘irrom dedi, mana oqibati! Otamiz niyatiga yetdi! Otamiz bor ekan, bizga g‘animning keragi yo‘q... (Tilovberdi polvon)

“**Ma’daniyat**” guruhiga

Nasim oshna, ko‘zimga ko‘rinib yaramni yangilading. Yana tag‘in o‘g‘limni-da yiqitding.

Bilib qo‘y oshna... izingdan surganim surgan! Qayerda davra bo‘lsa izingdan quvib boraman!

Baholash va rag‘batlantirish.

O‘quvchilarning yiqqan ballari jamlanadi va izohlanadi. G‘olib guruh aniqlanadi. Darsda faol ishtirok etgan o‘quvchi “Dars qiroli yoki qirolichasi” deb e’lon qilinadi. Boshqa ikki guruhdan ham eng ko‘p rag‘bat yiqqan o‘quvchilar “O‘ngqo‘l vazir” va “Chap qo‘l vazir” etib saylanadi.

Uyga vazifa.

O‘quvchilarga “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi asosida rasm chizish va asar qahramonlaridan biriga maktub yozish topshirig‘i beriladi.

XULOSA

1. “Otamdan qolgan dalalar” asarini lingvopoetik tahlilida takrorlar lingvopoetikasi, parsellyativ konstruksiyalar lingvopoetikasini aniqlashda, parsellyatsiya va uning yondosh hodisalari hisoblangan segmentatsiya, paranteza, ellipsis, sukut hodisalari asarda misollar orqali tahlil qilindi. Asarda yozuvchi asosan umumxalq tilidan ya’ni o‘zi tug‘ilib o‘sgan joy Surxondaryo shevasidan foydalangan.

2. Asarda bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning ifodalanishida aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol parsellyat sifatida gapdan tashqariga chiqarish kuzatiladi.

Shuningdek ikkinchi darajali bo‘laklar gap tarkibida qo‘llanilganda gapdagi bo‘laklar o‘zaro grammatik qo‘shimchalarni oladi va o‘zidan keyingi so‘zga tobelanib keladi. To‘ldiruvchi, hol va qaratqishli aniqlovchi gapda grammatik qo‘shimchalarni olib o‘zidan keyingi so‘z bilan moslashuv va boshqaruv yo‘li bilan grammatik munosabatga kirishadi. Biroq Tog‘ay Murod bu asarda asar voqealarining qayerda bo‘lib o‘tganligini ta’kidlash maqsadida badiiy asarda shevalarga xos so‘zlardan o‘rinli foydalangan. Muallifning shevaga xos so‘zlardan foydalanish mahorati ham badiiy asarning ta’sirchanligini oshirgan.

3. Parsellyatsiya natijasida mohiyatan bir sintaktik gap ikki kommunikativ jumlag aylanadi, bir sodda sintaktik shaklda ifodalanadigan fikr ikki kommunikativ shaklda ifodalanadi.

Og‘zaki nutqning cheksiz imkoniyatlarini yozma nutqda-badiiy matnda parsellyat konstruksiyalar orqali qulay va ta’sirchan tarzda ishga tushirish mumkin. Badiiy matnning sintaktik shakllanishi tekshirilganda turli sintaktik vazifada keluvchi gap bo‘laklarining parsellyat sifatida final tinish belgisidan

keyinga chiqarilganini kuzatish mumkin.

4.Ega shaklidagi parsellyatlar asarda muallifning estetik niyati ro'yobiga xizmat qiladi. Bunda, asosan, ega sintaktik maqomdagi bo'lak muayyan gap tarkibidan uzib olinganda, o'sha bo'lak aynan ta'kidlanayotgandek bo'ladi.

5.Kesim shaklidagi parsellyatlar o'zbek tilida tarkibli yoki predikativlik (kesimlik) shakllari faqat bir marta qo'llangan uyushiq kesimlar doirasidagina kuzatilishi mumkin. Asarda kesim shaklidagi parsellyatsiyalar asosan takror holda qo'llanilgan. Asar to'ldiruvchi shaklidagi parsellyatlarni jumladan tashqariga chiqarish juda keng kuztiladi. Bunda alohida jumla maqomidagi to'ldiruvchi kuchli ta'kid olgan.

6.Umuman to'ldiruvchi shaklidagi parsellyatsiyalar badiiy matnda ega va kesim shaklidagi parsellyatlarga qaraganda ancha keng va turi ko'rinishlarda qo'llanadi.

7.Aniqlovchi shaklidagi parsellyatlar badiiy matnda hamisha aktuallashtirilgan bo'ladi. Ayni paytda, aniqlovchi-aniqlanmish munosabatining o'ziga xos zichligiga ko'ra aniqlovchi shaklidagi parsellyatning asosiy gap bilan semantik-grammatik aloqasi aniq bilinib turadi.

8.Gap shaklidagi parsellyatlar bog'langan, ergashgan va bog'lovchisiz qo'shma gaplar parsellyatsiyasi natijasida yuzaga keladi. Parsellyatsiya ergashgan qo'shma gaplarning ayrim semantik-struktur turlarida voqelana oladi. Havola bo'lakli ergashgan qo'shma gaplarni parsellyatsiyalash umuman mumkin emas. Asosan havola bo'laksiz bo'lgan shart, sabab o'xshatish, maqsad ergash gapli qo'shma gaplarni parsellyatsiyalash mumkin. Bunda ko'proq ergash shaklidagi parsellyat rematik ta'kid olsa-da, boshqa qo'shma gaplardagi kabi darajada bo'lmaganligi uchun jiddiy poetik qimmatga ega bo'lmaydi.

9.Badiiy matnda parsellyatsiya asosida tarkiblangan mikromatnni alohida

poetik ahamiyat kasb etadi. Parsellyatlar birdan ortiq bo'lganda sintaktik struktura murakkablashadi, umumiy intonatsiya ham parchalanadi. Ekspressiv sintaksis usuli bo'lgan parsellyatsiya natijasida bir tomondan, hajman katta sintaktik struktura ixchamlashadi, ikkinchidan tegishli qismlarning mantiqiy-poetik ta'kid darajasi ortib nutqning sintaktik-estetik, lingvopoetik quyuqlashuvi yuzaga keladi. Parsellyatsiya matn badiiyatini ta'minlashda o'ziga xos sintaktik zaxira vazifasini o'taydi.

10. Takror shaklidagi parsellyatlar asosiy qismga nisbatan sintaktik struktura jihatidan mustaqil pozitsiyada bo'lishiga qaramay, asosiy qismning mazmun doirasiga aloqador bo'ladi. Bu o'rinda parsellyatning o'zini va o'zi tobe bo'lgan qismni poetik aktuallashtirishga xizmat qiladi. Asosiy gap tarkibidagi parsellyatni shakllantirish uchun ham poetik ta'kidni kuchaytirgan.

11. Xullas "Otamdan qolgan dalalar" asarini realistik asar sifatida baholaganimiz holda, unda realistik shartlilik darajasining yuqoriligi va bu narsa qat'iy realizm talablarida jiddiy chekinishlarga olib kelganligini e'tiborda tutish lozim. Bu nimalarda ko'riladi? Avvalo, yuqorida eslatganimiz vaqtning shartlilik: 20-yillarda esini tanigan bolakay 60-yillarda ham bolalagicha qoladi. Bugina emas, umuman asarda tasvirlangan yoki eslatilgan voqealar, tafsilotlar real xronologiyaga doim ham muvofiq kelavermaydi. Undagi qator obrazlar ramziy (maska) sifatida bo'y ko'rsatadi. Romanning betakror ifoda tarzi tili, tasvir ohangi obrazlari hali ko'p jiddiy tadqiqotlar uchun ozuqa beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. -174b.
2. Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. - 686 b.
3. Karimov I. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9. – Toshkent: O'zbekiston, 2001. - 439 b.
4. Abdullayeva D.T. Mazmuniy subyekt va uning o'zbek tilida ifodalanishi: Filol. fanlari nomzodi. dis. ... avtoref. - T., 2001. – 25 b.
5. Abdurahmonov G'. Adabiy asar tilini o'rganish haqida // O'zbek tilini o'qitish metodikasi masalalari, Toshkent, Fan, 1966. 4 – 11 – betlar.
6. Abdurahmonov G'. Qo'shma gap sintaksisi. –Toshkent, 1964.
7. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi (Sintaksis). –Toshkent: O'qituvchi, 1996.
8. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So'z estetikasi. – Toshkent: Fan, 1981.
9. Abdurahmonov Sh.A. O'zbek badiiy nutqida kulgi qo'zg'atuvchi lisoniy vositalar, Filol.fanlari nom... diss. – Toshkent, 1997. – 24 b.
10. Abuzalova M.Q. O'zbek tilida sodda gapning eng kichik qolipi va uning nutqda voqyelanishi: Filol. fanlari nomzodi. dis. ... avtoref. – T., 1994. – 24 b.
11. Ashirboyev S. Alisher Navoiyning nasriy asarlaridagi sodda gaplarning ma'no va tarkibiy xususiyatlari: Filol. fanlari d-ri ... dis. – T., 1990. – 330 b.
12. Boboyeva A. To'liqsiz gapning... to'liqligi // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1976. – №1. – B. 62-63.

13. Jamoliddinova D.M. Badiiy nutqda parantez birliklarning semantik-grammatik va lingvopoetik xususiyatlari. Filol. fanlari nomzodi ...diss. avtoref. – Toshkent, 2009. - 26 b.
14. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. - 156 b.
15. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. - 160 b.
16. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: Filol. fanlari d-ri ...diss. – Toshkent, 2009. - 314 b.
17. Yo‘ldoshev M., Yadgarov Q. Badiiy matnning lisoniy tahlili fanidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish. – Toshkent: TDPU, 2007. -112 b.
18. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – Toshkent: Fan, 1989. - 112 b.
19. Mamajonov A., Abdupattoyev M. Matn sintaksisi. – : Nashriyotsiz, 2002. - 39 b.
20. Mamajonov A., Mahmudov U. Uslubiy vositalar. – Farg‘ona: Nashriyotsiz, 1996. - 47 b.
21. Mahmudov N.M. Oybek she‘riyatidagi o‘xshatishlarning lingvopoetikasi // O‘zbek tili va adabiyoti, 1985.- №6. 48-51 betlar.
22. Maxmudov N.M. O‘zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya. – T.: O‘qituvchi, 1984. -156 b.
23. Maxmudov N.M. Funktsional va nofunktsional to‘ldiruvchilar xaqida// O‘zbek tili va adabiyoti. – 1981. - №1. – B.43-47.
24. Mahmudov N. Va boshq. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. T.,1991.
25. Mahmudov N. Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). T.: O‘qituvchi, 1995.

26. Mahmudov N. Kesimning gapdagi maqomi. //O‘zbek tili va adabiyoti. -T., 2009 №1.B. 44-55
27. Nurmonov A. Gap haqida sintaktik nazariyalar. -T., 1988.
28. Rixsiyeva G. Metafora haqidagi diss. avtoreferati
29. Toshaliyev I. Hozirgi o‘zbek tili. Sintaksis. Sintaktik va sintagmatik qayta bo‘linish. Parsellyasiya.O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Zar qalam, 2004. - 145 b.
30. Turniyozov N. Matn lingvistikasi (ma’ruzalar matni). – Samarqand: Nashriyotsiz, 2004. - 132 b.
31. Turniyozov N., Turniyozova K. Funktsional sintaksisga kirish. – T.: Fan, 2003.
32. Turopova M. Ilovali konstruksiyalarning boshqa sintaktik konstruksiyalardan farqi // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1980. – №1. – B. 53-56.
33. Shahobiddinova Sh., Isoqov Z. Matn va uni bog‘lovchi vositalardan biri // O‘zbek tili va adabiyoti, 2004. – №6. – B. 75-77.
34. Qurbonova M. O‘zbek tilshunosligida formal-funksional yondashuv va soda gap qurilishining talqini: Filol. fanlari d-ri dis... avtoref. - T., 2001. – 48 b.
35. G‘ulomov A. Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -T.: O‘qituvchi, 1987.
36. G‘ulomov A. Sodda gap. -T., 1955.
37. O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. /Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. № 1, 2, 3, 4,5 -T., 2007-2011.
38. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. II t. –Toshkent: Fan, 1966. 424b.
39. <http://www.edu.uz/>
40. <http://ziyo.edu.uz/>

Kirish.	
I bob. Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarining semantik-grammatik xususiyatlari.	
1.1. Bosh bo‘laklarning ifodalanishi.	
1.2. Ikkinchi darajali bo‘laklarning ifodalanishi.	
II bob. Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarining lingvopoetik xususiyatlari.	
2.1. Takrorlar lingvopoetikasi.	
2.2. Parsellyativ konstruksiyalar lingvopoetikasi.	
III bob. Ishning amaliyotga tatbiqi.	
3.1. Ta’lim bosqichlari dastur va darsliklarida Tog‘ay Murod ijodi...	
3.2. Ochiq dars ishlanmasi.	
Xulosa.	
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.	